INSON KONSEPTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i04.047

Jumayev Elmurod Bekpulatovich
elmurodjumayev272@gmail.com
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi inson konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar lingvokulturologik va antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlari yoritilib, ularning insonning jismoniy, ruhiy-psixologik, axloqiy-xarakterologik, ijtimoiy va kognitiv jihatlarini aks ettirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, somatik, emotsional, xarakterologik hamda zoofrazeologik birliklar misolida o‘zbek xalqining milliy-madaniy qarashlari, qadriyatlari va mentaliteti tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi muhim lingvomadaniy kod ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: inson konsepti, frazeologik birlik, lingvokulturologiya, antropotsentrik paradigma, somatik frazeologizm, emotsional-psixologik holat, xarakterologik birliklar, zoofrazeologizm, lingvomadaniy kod, o‘zbek til

PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS WITH THE CONCEPT OF A PERSON

Djumaev Elmurod Bekpulatovich
elmurodjumayev272@gmail.com
University of Information Technology and Management

Abstract: This article analyzes phraseological units expressing the concept of a person in the Uzbek language based on a linguocultural and anthropocentric approach. The study highlights the semantic, structural and functional properties of phraseologisms, reveals their role in reflecting the physical, spiritual-psychological, moral-characterological, social and cognitive aspects of a person. Also, the national-cultural views, values and mentality of the Uzbek people are analyzed using the example of somatic, emotional, characterological and zoophraseological units. The results of the study show that phraseological units are an important linguocultural code that expresses the inextricable link between language and culture.

Keywords: concept of a person, phraseological unit, linguocultural, anthropocentric paradigm, somatic phraseologism, emotional-psychological state, characterological units, zoophraseologism, linguocultural code, Uzbek language

(cc) BY

Kirish (Introduction). Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi insonni til va madaniyatning markaziga qo‘ymoqda. Frazeologik birliklar (frazemalar, idiomalari, turg‘un iboralar) tilning eng obrazli, ekspressiv va milliy-madaniy jihatdan boy qatlamidir. Ular nafaqat ma’noni ifodalaydi, balki xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, qadriyatlari, stereotiplari va inson haqidagi chuqur tasavvurlarini avloddan-avlodga o‘tkazadi. Inson konsepti - bu til va madaniyatda insonning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, axloqiy va kognitiv tomonlarini aks ettiruvchi murakkab kognitiv tuzilma. Frazeologik birliklarda bu kontsept somatic (tana a’zolari orqali), emotsional-psixologik (his-tuyg‘ular), xarakterologik (fe’l-atvor), ijtimoiy-hayotiy va etnik-madaniy jihatdan namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida frazeologizmlar ko‘pincha inson tanasi (bosh, ko‘z, qo‘l, yurak, ko‘ngil, til), ruhiy holati, axloqiy sifatlari va hayotiy tajribasi orqali ifodalanadi. “Bet(i) qattiq kimning? gapso‘z, tanbeh ta’sir qilmaydigan, surbet. Varianti: yuzi qattiq. «Abbosxon aka, olsinlar, shu qol-masin, olib qo‘ya qolsinlar». - «Yo‘g‘-e, rahmat. Laganning tagi beti qattiqniki deydilar», - dedi hazillashib Ahmedov. S.Zunnunova. Yangi director[1:73]”.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…”nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan dastlabkii asar sifatida baholash mumkin[2:16]. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida fikrlar bayon etiladi.

O‘zbek tilshunosligida iboralarni o‘rganish bo‘yicha Sh. Rahmatullayev “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da minglab iboralarni to‘plab, ularning semantik, struktural va funksional xususiyatlarini tahlil qilgan[3:407]. V.V. Vinogradov tasnifiga asoslanib, frazeologik birliklarni chatishma (semantik jihatdan bo‘linmaydigan), butunlik (motivatsiyalangan) va qo‘shilma (qisman motivatsiyalangan) turlariga ajratish qabul qilingan[4:118].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqot lingvokulturologik va antropotsentrik yondashuv asosida tuzilgan bo‘lib, deskriptiv-analitik va semantik-komponent tahlil usullaridan foydalanadi. Asosiy maqsad - o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarda “inson” kontseptining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishdir.

Tadqiqotning asosiy bosqichlari va usullari: Ma’lumotlar Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (2006), A. Isayevning somatik frazeologizmlar bo‘yicha tadqiqotlari, zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalari (S. Zunnunova va

(cc) BY

boshqalar) hamda xalq og‘zaki ijodidan (maqollar, matallar) olingan 300 dan ortiq frazeologik birlikdan iborat korpusdan tuzildi.

Tahlil usullari: semantik-komponent tahlili - frazeologizmlarni inson kontseptining beshta asosiy komponenti (somatik, ruhiy-psixologik, axloqiy-xarakterologik, ijtimoiy-hayotiy, kognitiv) bo‘yicha tasniflash; lingvokulturologik tahlil - frazeologik birliklarni milliy madaniyatning “lingvomadaniy kod”i sifatida ko‘rib chiqish (N. Mahmudovning lingvokulturologiya nazariyasiga asoslanib); struktural-taqqosiy usul - V.V. Vinogradovning frazeologik birliklarni chatishma, butunlik va qo‘shilma turlariga ajratish tamoyilidan foydalanish; metafora va metonimiya asosidagi kognitiv tahlil - frazeologizmlarning obrazli asosini ochish.

Ilmiy asos. Tadqiqot antropotsentrik paradigma doirasida olib borildi. Natijalar miqdoriy (foizlar orqali komponentlarning tarqalishini ko‘rsatish) va sifatli (misollar va izohlar) tahlil bilan tasdiqlandi.

Tadqiqotning ishonchliligi tanlangan materialning vakilligi, lug‘at va adabiy manbalarning ishonchli ekanligi hamda ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil orqali ta’minlandi. Ushbu metodologiya frazeologik birliklarda inson kontseptining chuqur va tizimli o‘rganilishini ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Lingvokulturologiya nuqtai nazaridan frazeologizmlar milliy madaniyatning “lingvomadaniy kod”i, konseptlarning obrazli ifodasi sifatida qaraladi. Frazeologik birlik - ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, barqaror, ko‘chma (majoziy) ma’noga ega, nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan birikmalardir. Frazeologik birliklarning asosiy belgilari: turg‘unlik, ma’no yaxlitligi, obrazlilik, takroriylik va idiomatiklik. Frazemalarning shakllanishi tarixiy, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillarga bog‘liq. Xususan, qishloq xo‘jaligi, oilaviy urf-odatlar, islomiy qadriyatlar (sabr, qanoat, mehmondo‘stlik) asosida iboralar shakllanib kelgan. Masalan, bir qop yong‘oqday shaldir-shuldur kim? bor gapni ochiq ko‘ngillilik, xushchaqchaqlik bilan to‘kib soladigan.

Inson konsepti frazeologiyada antropotsentrik xususiyatni ta’kidlaydi: til inson faoliyati, his-tuyg‘ulari va dunyoni idrok etishini aks ettiradi. Inson konsepti quyidagi jihatlar orqali namoyon bo‘ladi: 1. Jismoniy inson (somatik komponentlar): bosh, ko‘z, qo‘l, oyoq, yurak, til, soch kabilar (Bosh(i) kal bo‘lsa ham, ko‘ngl i) nozik, ko‘z(i)ni ko‘r, qulog‘(i)ni kar qilmoq); 2. Ruhiy-psixologik inson: quvonch, g‘azab, qo‘rquv, umid, ko‘ngil holati(jon(i)ni hovuchlab, jig‘ibiyron(i) chiqdi); 3.Axloqiy-xarakterologik inson: saxiy, makkor, vafodor, uyatsiz (ko‘z(i) taka-puka, ko‘ngl(i) keng); 4. Ijtimoiy inson salohiyati bilan bog‘liq: oila, mehnat, jamiyatdagi o‘rni(tayyorga ayyor bo‘lmoq, ter to‘kib). 5.Inson kognitiv jarayoni bilan aloqador: aql, fikr, bilish (xayol(i) ketdi, xom sut emgan).

Lingvokulturologik yondashuvda frazeologizmlar milliy madaniyatning etalonlari va stereotiplarini saqlaydi. O‘zbek tilida inson “odam - gavhar, qo‘li - gul”,

(cc) BY

“odam odam bilan aziz” kabi iboralar orqali ulug‘lanadi. “Non” konsepti ham muhim: non - tiriklik asosi, mehmondo‘stlik ramzi bo‘lib, frazeologizmlarda inson axloqi bilan bog‘lanadi.

O‘zbek tilidagi inson konsepti frazeologizmlarini semantik-komponentli asosda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: a) Somatik (tana a’zolari bilan bog‘liq) frazeologik birliklar eng keng tarqalgan bo‘lib, inson jismini metafora va metonimiya sifatida ishlatadi. A. Isayevning tadqiqotlarida somatik frazeologizmlar alohida o‘rganilgan[3:14]: bosh: “boshi osmonga yetdi” (juda xursand), “boshi qotdi” (qiyin ahvolda qoldi), “aqli boshiga kirdi” (es-hushini yig‘di), “boshi berk” (chiqish yo‘li yo‘q); ko‘z: “ko‘zi ochildi” (haqiqatni angladi), “ko‘z qorachig‘i” (eng aziz narsa), “ko‘zini shamg‘alat qilmoq” (aldamoq), “ko‘zi yashnadi” (xursand bo‘ldi yoki teskari), “ko‘z oldida” (yaqin, ravshan); qo‘l: “qo‘li egri” (o‘g‘ri), “qo‘lidan kelmoq” (qodir bo‘lmoq), “qo‘lini tushirmoq” (umidsizlikka tushmoq), “qo‘li gul” (hunarmand, mohir), “qo‘li ochiq” (saxiy); yurak / ko‘ngil: “yuragi yorildi” (juda qo‘rqdi yoki xursand), “ko‘ngli joyiga tushdi” (tinchlandi), “ko‘kragi tog‘day ko‘tarildi” (g‘ururlandi), “ko‘ngli tor” (xasis), “ko‘ngli toza” (samimiy), “yuragi sovuq” (beg‘am); til / og‘iz: “tili uzun” (gapdon, ortiqcha gapiruvchi), “tilini biriktirmoq” (jim bo‘lmoq), “og‘zi qulog‘ida” (juda xursand), “og‘ziga tolqon solmoq” (jim qilmoq), “til jarohati bitmas” (og‘izdan chiqqan so‘zning zarari katta); soch va boshqa: “sochi tikka bo‘ldi” (qo‘rqdi), “eti suyakka yopishgan” (juda ozg‘in).

Emotsional va psixologik holatni ifodalovchi frazeologizmlar quvonch (“og‘zi qulog‘ida”, “yuzi yorishdi”, “bahri dili ochildi”, “ko‘ngli ko‘tarildi”, “boshi osmonga yetdi”), g‘azab / achchiqlanish (“g‘azabi qaynadi”, “qoni qaynab ketdi”, “avzoyi buzildi”, “yuzi qizardi”), qo‘rquv (“yuragi dovullab ketdi”, “sochi tikka bo‘ldi”, “o‘zini yo‘qotmoq”, “yuragi muzlab ketdi”), umidsizlik / qayg‘u (“qo‘lini tushirdi”, “bag‘ri qon”, “ko‘ngli qoldi”, “yuragi siqildi”) kabi ma’nolarini ifodalab keladi.

Xarakter va axloqiy sifatlarni ifodalovchi birliklari uslubiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra ijobiy (“qo‘li ochiq” (saxiy), “so‘zi og‘ir” (ishonchli), “yuragi keng” (kechirimli), “oltin qalbli”, “to‘g‘ri so‘z”, “qo‘ydek yuvosh”, “itdek sodiq”) salbiy (“yuzi qalin” (uyatsiz), “qo‘li egri”, “tili shirin” (aldovchi), “ichi qora” (yomon niyatli), “tulkidek ayyor”, “bo‘ri kabi ochko‘z”, “eshekdek ahmoq”, “ilon kabi makkor”) kabi turlarga bo‘linadi.

Zoofrazeologizmlar, jumladan, qo‘y - yuvoshlik, tulki - ayyorlik, it - vafodorlik yoki jahldorlik, bo‘ri - yirtqichlik, chumoli - mehnatkashlik kabi ramziy metaforalar sifatida qo‘llanadi.

Ijtimoiy, hayotiy va kognitiv tajribani aks ettiruvchi frazeologizmlar mehnat (“qora ter to‘kmoq”, “chumolidek mehnatkash”), oila va munosabatlar (“aka-singil qo‘l-oyoqdek” (yaqin), hayot falsafasi (“nondek aziz”, “sabru qanoat”), aql va fikr (“aql yugurtirmoq”, “aql topmoq”) ham mavjud.

(cc) BY

Maqollar va matallar ham frazeologizmlarga yaqin: “Odam toshdan qattiq, paxtadan yumshoq”, “Non - tiriklik asosi”[5:512]

O‘zbek frazeologizmlarida inson konsepti milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Islomiy ta’sir “sabr”, “taqvo”, “mehmondo‘stlik”ni kuchaytiradi. “Ko‘ngil” kontsepti - o‘zbek mentalitetining markazi: u ruhiy holat, axloq va munosabatlarni ifodalaydi. Kognitiv jihatdan frazeologizmlar metafora va metonimiya asosida shakllanadi. Bu universal (inson tanasi hamma tillarda metafora manbai) va milliy (o‘zbek tilida “ko‘ngil” kuchli) xususiyatlarni birlashtiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Inson konsepti o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarda boy va ko‘p qirrali tarzda aks etadi. Ular insonning jismiy-ruhiy yaxlitligini, his-tuyg‘ularini, axloqiy sifatlarini, jamiyatdagi o‘rnini va dunyoqarashini obrazli ifodalaydi. Frazeologiya milliy madaniyatning saqlovchisi bo‘lib, tilni boyitadi va avloddan-avlodga o‘tadi. Zamonaviy tilshunoslikda bu mavzuni chuqurroq o‘rganish (qiyosiy, korpus asosidagi, kognitiv va lingvopragmatik tadqiqotlar) til va madaniyat munosabatlarini yanada yoritadi. Frazeologik birliklar nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, pedagogika, madaniyatshunoslik va tarjima nazariyasi uchun ham qimmatli manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2022. - 636 B.

2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab… // “O‘zbek tili va adabiyoti”. Toshkent, 2012. №5. B.16.

3.https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/o-zbek-tilining-izohli-frazeologik-lug-ati

4. Vinogradov V.V. Osnovnыe ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy distsiplinы. Izbrannnыe trudы. Leksikologiya i leksikografiya. - M.: 1977. - C.118.

5. O‘zbek xalq maqollari. “Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi” - Toshkent: 2005. - B. 512.

(cc) BY